

KONSEPTNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

M. Ergashev¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada, konsept tushunchasining lingvomadaniy jihatdan tadqiqi bo'yicha tilshunos olimlarning nazariy qarashlari, fikr mulohazalari tahlil qilingan. Shuningdek konseptning lingvomadaniy xususiyatlari borasidagi xorij va o'zbek tilshunos olimlari tomonidan bildirilgan fikr va ta'riflari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, madaniyatshunoslik, lisoniy shaxs, konsept, konseptuallashtirish, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika.

doi: <https://doi.org/10.2024/r55fyw72>

Kirish

So'nggi yillarda konsept haqidagi tadqiqotlar lingvomadaniy hamda lingvokognitiv tomondan amalga oshirilib, ilm-fanda ancha muhim o'rin egallamoqda. Kognitiv tilshunoslikda olib borilgan tadqiqotlar uzoq vaqt davomida bahs munozaralarga sabab bo'lgan hamda o'z yechimini topgan yondashuvlarga yangicha nazar tashlash va muayyan til hodisalarini o'rganishning turli usullari va tajribalari bilan boyitildi. Yangi usullar tilshunoslarga lisoniy birliklarning olam to'g'risidagi ma'lum bilimlarni qayta ishlash natijasi sifatida tahlil qilish, ma'lum bir ma'no ortida turgan bilimlar shakllanishining umumiy tamoyillari va usullarini tadqiq qilish, bilimning muayyan tuzilishi orqali ma'noni tushuntirish, kognitiv va lisoniy tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlash imkonini yaratdi. Shu asnoda dunyo tilshunoslari konseptni lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatdan tadqiq qila boshladilar.

Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida, ammo tilshunoslikning ustuvorligida yuzaga kelgan eng yosh yo'nalishdir, shuning uchun ham bu yangi yo'nalish bevosita til haqidagi ilm bag'rida dunyoga kelgan. Lingvokulturologiyada (kognitiv tilshunoslikda ham, umuman, antropo-logik paradigmada) "olamning lisoniy manzarasi", "lisoniy shaxs", "konsept" kabi bir qator asosiy tushunchalar mavjud [13]. Bu tushunchalar, terminlar haqida tilshunoslikda juda ko'p yozilgan bo'lishiga qaramasdan, hali-hamon ularning ayrimlari talqinida bir xillikka erishilgan emas. Masalan, "olamning milliy lisoniy manzarasi" terminini qo'llashda va talqin qilishda deyarli bir to'xtamga kelingan: "Tillar qancha bo'lsa, olamning shuncha milliy lisoniy manzarasi mavjud, bu tillarning har biri jamoaviy etnik ongning koinotdagi inson mavjudligini anglash va kategoriyalashtirish borasidagi ko'p asrlik faoliyatining noyob natijalarini aks ettiradi"[9]. Ammo "lisoniy shaxs", "konsept" terminlari haqida bunday deb bo'lmaydi [5]. A.M.Nadyojkin konsept haqidagi ilmiy talqinlarda juda ham mavhumlik, har xillik mavjudligini ko'rsatib o'tadi, konsept nazariyasi metodologik jihatdan jiddiy tadqiq etishga muhtoj ekanligini aytadi.

¹ *Ergashev Mirsaid Baxtiyor o'g'li, SamDCHTI o'qituvchisi*

Kognitiv tilshunoslik va pragmatika muammolari bilan jiddiy shug'ullangan o'zbek tilshunosi professor Sh.Safarov ham negadir konsept haqida gapirar ekan, uning lingvomadaniy va etnomilliy jihatlariga yetarli e'tibor bermaydi [12]. To'g'ri, konsept tafakkurga oid, mazmuniy, mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman xoli bo'lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir. Bu masala tadqiqiga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratgan S.G.Vorkachev hatto "lingvokonseptning yetakchi farqlovchi belgisi uning etnomadaniy belgisi bo'lishini ta'kidlaydi [2].

Professor Nizomiddin Mahmudov konseptga rus tilshunosligida berilgan ko'pdan-ko'p ta'riflar orasida V.A.Maslova tomonidan ilgari surilgan ta'rif haqiqatni aniqroq aks ettirishini ta'kidlaydi. V. Maslovaning talqinicha, konsept, "bu lingvomadaniy o'ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir"[11].

Lingvomadaniy yondashuv milliy konseptosferaning xususiyatni madaniyatdan ong tomonga bo'lgan yo'nalishini o'rganadi. Bu yo'nalishda Y.S.Stepanov, V. I.Karasik, V.A.Maslova, D.U.Ashurova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Bu yo'nalishda konseptlar madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, obrazli, pragmatik va stilistik hodisa sifatida o'rganilgan [14].

Shunisi e'tiborga loyiqki, o'tgan asrning 50-70-yillarida "konsept" atamasi lingvistik lug'atlarda mavjud emas edi. Shu vaqtgacha bu tushuncha fanda faqat falsafiy-matematik kategoriya sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ammo XX asrning oxiridan hozirgi kunga qadar kontsept o'ziga xos qayta ko'rib chiqish davridan omon qoldi va falsafadagi kabi lingvokulturologik kategoriya apparatida ham faol qo'llanildi.

Konsept mavzusini lingvokulturologiyada o'rganar ekanmiz, rus tilshunosi, "kontsept" atamasini lingvokulturologik qo'llanishga kiritgan olim Y.Stepanovning bu boradagi fundamental ishlarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Misol sifatida "Konstantlar" monografiyasi, shuningdek "Rus madaniyati lug'ati" (1997) ham bugungi kunda tilshunoslikdagi kontseptni o'rganish uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

Y.Stepanov kontseptuallashtirilgan sohani "so'zlar, narsalar, mifologemalar va marosimlar umumiy tasvirga (madaniy tushuncha) birlashtirilgan madaniyat sohasi deb ataydi. Alohida "konseptuallashtirilgan makon" doirasida so'z va marosim ob'yekti, so'z va mifologema va hokazolar semantik jihatdan o'ziga xos tarzda birikishi, bir-birining o'rnini bosuvchi yoki timsol vazifasini o'taydi. Madaniyat sohasidagi bu kontseptualizatsiya jarayonini biz "narsalar va so'zlarning sinonimizatsiyasi" deb ataymiz [14].

Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish ham mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan. Masalan, ularning ayrimlari: O.V.Golovan "Urush" konseptining semantik-assotsiativ tuzilishi; L.N.Venediktova "Dunyoning lingvistik sathida "urush" konsepti (ingliz va rus tillari materiallarini qiyosiy o'rganish misolida) va boshqalar [4].

Konsept termini tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa [3], uning hozirgi vaqtdagi izohi kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin.

Rus tilshunosi L.V.Adonina konsept terminiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta'rifini keltiradi. Shuningdek, uning ma'lumotiga ko'ra, konsept termini o'n nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga;

qo'llanishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo'linadi va h.k.

Konsept termini o'zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan [12]. Fikrimizcha, konsept ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilmadir. Shuningdek, u bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, konsept-ning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayot-ganligi ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini [17] yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholash mumkin. Zotan, til tizimi yuqoridagi sifatlarni o'zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi [15].

Y.N. Shvedova konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi [16].

E.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, "Konsept termini tafakkurni anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun soyabon vazifasini bajaradi". Konsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma'no va obraz yotadi hamda u yuksak darajadagi mazmunga egadir. Suqrotning "O'zingni angla" degan serma'no fikri har bir tarixiy davrda yangicha ma'no kasb etadi. Tafakkur qilish va anglashda insonning, eng avvalo, etnik kelib chiqishi, atrof-muhit, o'zi yashab turgan turmush tarzi sharoiti ta'sirida amalga oshadi.

Tilshunoslikda konsept mohiyatiga ko'ra madaniy, lingvomadaniy, psixolingvistik, kognitiv, emotsional, ilmiy xususiyatlarga egaligi e'tirof etiladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, konseptning mavjudlik doirasi, ya'ni til va fikrlashga madaniyat sohasi ham qo'shiladi. Lingvomadaniy konsept endi kognitiv tilshunoslik emas, balki lingvomadaniyatshunoslik birliklari bilan namoyon bo'ladi. Konseptni lingvomadaniy nuqtai nazardan olib qarasak, konsept madaniyatning bazaviy birligi hisoblanib, uning tarkibini konseptni madaniyat birligi deb hisoblashga asos bo'la oladigan belgilar, ya'ni etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy assotsiatsiyalari, munosabat (baholash) [1] va boshqalar tashkil etadi.

Psixolingvistikada konseptni o'rganish turlicha bo'lib, tadqiqotlar murakkabligi va ko'p qirraligi bilan ajrab turadi. Konsept insonning psixik hayoti qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega perseptiv, kognitiv va affektiv hosila sifatida talqin qilinadi.

Konseptning lingvomadaniy va kognitiv ta'riflari chambarchas bog'liqdir, chunki bilish tafakkur, til va madaniyat orqali amalga oshiriladi. Tilshunoslikning bu ikki yo'nalishi bilimning antroposentrik [2] paradigmasiga tegishli bo'lib, biz ushbu axborotda konseptni o'rganishni faqat kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan sharhlashga harakat qildik. Bundan tashqari, konseptning funksional-semantik tahlili ham borki, u alohida tadqiq qilinishni talab etadi.

Bizningcha konsept insonning atrof-olam bilan munosabati natijasi o'laroq vujudga kelgan idrok mahsulidir. Konsept inson ongi va tafakkurida nihoyatda yorqin rang-barang maydon tuzulishiga ega bo'lgan umumiy majmuaviy kategoriyadir. Konsept milliy va madaniy mental tushuncha bo'lib, insonlar jamoasi uchun umumiy va biror bir millat va xalq uchun milliy tushunchalarni ifodalovchi inson aql-idroki mahsulidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, konsept haqida tilshunoslik olamida turli xil ilmiy izlanishlar olib borilgan va olib borilmoqda. Konseptning tavsifi bo'yicha ko'plab

yondashuvlar va nazariyalar mavjud. Shunga qaramay, konseptning ichki tabiati haqida haligacha yakdil bir nuqtai nazarga kelinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. – М., 1985. – №3. – С.13.
- [2]. Воркачев С.Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – № 4. – С.76.
- [3]. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке // Вопросы филологии Москва, 2001. – №1. – С.35-47.
- [4]. Зиятдинова Г.И. Концепт “сугыш (война)” в татарской языковой картине мира: АКД. – Казань, 2009. – С.4.
- [5]. Иванцова Е.В. О термине “языковая личность»: истоки, проблемы, перспективы использования // Вестник Томского государственного университета. Филология. №4 (12). 2010. – С.24-32;
- [6]. Надёжкин А.М. «закат» концепта // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. №6 (2). 2011. – С.452-454.
- [7]. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.;
- [8]. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Изд.центр. “Академия”, 2007. – 208 с.;
- [9]. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – С.140.
- [10]. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212;
- [11]. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 5. – Б. 3-16.
- [12]. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. - Б. 17-18.
- [13]. Светоносова Т.А. Когнитивная лингвистика и лингвокультурология: черты и различия // Филологические науки в МГИМО. Сборник науч. Трудов. №27 (42). М.:МГИ-МО-Университет, 2007. – С.39-46;
- [14]. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: Опыт исследования. – М.: Яз. рус. культуры, 1997. – 824 с.
- [15]. Худайберганаева Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2015. – Б. 11-12.
- [16]. Холикова Л. Ф. Managing university students'research skills throug interdisciplinary projects and e-projects // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
- [17]. Fakhriddinovna H. L. Pbl virtual educational platforms in foreign language teaching //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 12. – №. 5. – С. 187-191.
- [18]. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С.603.